

RESEARCH ARTICLE

Rendering Of Portrait Descriptions In The English Translation Of Oybek's Novel "Navoiy"

Sayyora Hamidova

1st-Year Master's Student Asia University of Technology Qarshi, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 104-106

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-NonCommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

The article discusses the problem of translation of portrait depiction in English version of the novel "Navoiy" by Uzbek writer Oybek, also interprets stylistic adequacy and discrepancy of linguistic units.

KEY WORDS

literary translation, artistic quality, portrait depiction, characteristics of a portrait.

INTRODUCTION

Taniqli o'zbek yozuvchisi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Navoiy" romani 1942-yilda yaratilgan bo'lib, unda buyuk mutafakkir, "she'riyat mulkining sultoni" Alisher Navoiy hayoti badiiy talqin qilingan. Muallif roman tilining shoir lisoniga mos tarzda tanlangan, stilistik jihatdan bo'yoqdor so'zlarni ishlatgan, davr muhitini, zamon va makonni, tarixiy shaxslarni, to'qima obrazlarni, voqealar talqinini, personajlar galleriyasini tasvirlashda arxaik so'zlar, xos so'zlarni asar to'qimasiga mahorat bilan kiritgan. Badiiy personajlar portretini xuddi o'quvchi ko'z oldida aniq namoyon bo'lib turgan-dek, tashqi ko'rinishidan tortib, ustki kiyimi-yu, ichki dunyosigacha xatti-xarakatlari, fe'l-atvorlarini aniq tasvirlab bergan.

Romanning 2016 yilda chop etilgan inglizcha tarjimasida ham muallif badiiy mahorati saqlanib qolinganmi? Asar qahramonlarining portreti tarjimada ham mualliflik munosib tarzda tasvirlab berilganmi? Badiiy tarjimaning nozik jihatlariga qanchalik ahamiyat berilgan? degan bir qator savol tug'ilishi tabiiy.

Ushbu maqolada romanning inglizcha tarjimasida portret tasviri qanday talqin qilinganligi xususida imkon va salohiyatimiz doirasida fikr bildirishga harakat qilamiz.

Fanda portret atamasiga bir necha xil ta'rif beriladi.

Tor ma'noda *portret* – bir insonning surat, haykal, fotografik yoki boshqa shakldagi tasviri, adabiy qahramon obrazi deiladi. Keng ma'noda esa *portret* – adabiy asarda qahramon tashqi ko'rinishining tasviri: uning yuzi, qad-qomati, kiyimi, xatti-harakati ifodasidir. Adabiyotshunoslik terminlari lug'atida, portretga quyidagicha ta'rif beriladi: "Portret (fransuzcha "portraire" – tasvirlamoq) personajning so'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko'z ifodasi, tana harakati, qiliqlari) orqali o'quvchi tasavvurida jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biridir".

Badiiy asarda inson obrazi yaratishning muhim vositasi hisoblangan portretni tarjimada to'laqonli qayta yaratish uchun tarjimon asar muallifi qo'llaydigan individual usullar haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi, har bir portret tasvirining xarakteriga aloqador nuqtalari, milliy xususiyatlariga diqqat qaratishi, portretidagi har bir detalning mazmun-mohiyati va vazifalarini aniqlashi kerak bo'ladi. Tarjimashunoslar portret xarakteristikasini shartli ravishda bir necha guruhga ajratadilar. Ulardan biri personajning tashqi qiyofasi, egnidagi libos, unga tegishli ashyolar tafsilotini o'z ichiga olgan "ko'rinishli portret" xarakteristikasidir. Yana biri - personajning holati tasviri bo'lib, bunda personajga beriladigan ma'naviy-axloqiy ta'rif muhim ahamiyat kasb etadi. Romanda personajlarning ijtimoiylik kasb etuvchi

tashqi qiyofalari tasviriy-ifodaviy vositalar yordamida aks ettirilgan. Tarjimada portretning qayta yaratilishi tarjimondan aslyat uslubi, mumtoz so'z san'ati an'analari, tashqi ifodaviy vositalarni bilishdan tashqari adabiy qahramonning ruhiy olamiga, tafakkuriga chuqur kirib borishni ham talab qiladi.

Romanda keltirilgan dastlabki portretlar asarning eng boshida tasvirlangan "Gavharshod" madrasasi tolibi ilmlariga tegishlidir. Muallif madrasa hujralarida ilm bilan mashg'ul talabalarning bahs-munozaralari, ularning madrasadagi mashg'ulotlari haqida yozar ekan, bir qancha toliblar, xususan, Aloiddin Mashhadiy, Zayniddin, Sultonmurod kabi obrazlarni batafsil tasvirlaydi. Asarda Aloiddin Mashhadiy quyidagicha gavdalanitiriladi: *"Yosh jihatdan eng kattasi - hujra sohibi Aloiddin Mashhadiy bo'lib, chuvak yuzini dag'al qora soqol bosgan, payvasta quyuuq qoshli, har vaqt yarim yumuq xira ko'zli, past bo'yli, chamasi, qirq yoshdagi kishi edi"* [1, 4 b.]. Uning inglizcha tarjimasida quyidagicha: *"The oldest one among them, Aloiddin Mashhadiy, was the owner of the hujra. He had a dark black beard and eyebrows, his eyes were always half closed and he was a short man who was about forty years old"* [2, 6 b.]. Aloiddin Mashhadiy chuvak, ya'ni ingichka, dag'al yuzli, qosh-soqoli qop-qora, qalin, qoshlari bir-biriga qo'shilib ketgan, ko'zlari yarim yumuq, xira bo'lgan o'rta yoshli erkak sifatida gavdalanitiriladi. Tasvirda o'zbek tilining ham zamonaviy, ham qadimiy bo'lmish "chuvak", "payvasta" kabi so'zlari ishlatilgan. Asarning inglizcha tarjimasida qahramonimiz *"quyuq qora soqol va qoshli, har doim yarim yumuq ko'zli, past bo'yli, qirq yoshlar atrofidagi erkak"* sifatida tasvirlangan. Uning "ingichka dag'al yuzi, quyuq payvasta qoshlari" tasviri tarjimada tushirib qoldirilgan. Ko'zlariga berilgan "xira" tasviri ham tarjimada o'z aksini topmagan. Natijada asar qahramonining to'laqonli portreti tarjimada to'liq tasvirlanmay qolgan.

O'zbek tilidagi *"chuvak"* so'zi adabiy so'z bo'lib, *"ingichka"* degan neytral so'zga sinonim bo'lib sanaladi. Asar tarjimasida ingliz tilida bu so'z tushib qolgan. Vaholanki, uni inglizcha *"narrow"* yoki badiiy bo'yoqdor hisoblanmish *"elongated"* so'zi bilan berish mumkin edi. Qahramonning *"dag'al qora soqol bosgan chuvak (ingichka) yuzi"*ni bitta birlik sifatida tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'lardi. Uning *"payvasta qoshlari"* tarjimada shunchaki soqoli bilan birga "qora" deb sifatlab ketilgan. *"Payvasta"* ya'ni *"bir-biriga qo'shilib ketgan"* qoshlarni inglizchada *"a thick unibrow"* deb berish mumkin edi. Yarim yumuq ko'zlariga berilgan *"xira"* sifatining inglizchada *"dim"* degan tarjimasida mavjud. Agar Aloiddin Mashhadiyning ingliz tilidagi portreti *"He was a short man of about forty, with a thick unibrow, perpetually half-closed dim eyes and, whose narrow face was covered with a dark, coarse beard"* deb berilganda portret aslyatga yaqinroq chiqqan bo'lardi.

"Chuvak", "payvasta" kabi qadimiy so'zlar boshqa bir joyda uchrasa ko'p ishlatiladigan, siyqasi chiqqan so'z bo'lib tuyulishi mumkin edi. Muallif qahramonni tasvirlashda uning yuzi tuzilishi o'sha davrdagi insonlarning ko'rinishiga o'xshab qolmasligiga harakat qilgani yaqqol ko'rinish turibdi, tasvir erkak kishi ekanligiga ham e'tibor berilgan. Zotan, fikrimizcha, qahramonning ingichka yuziga nisbatan ishlatilgan *"chuvak"* so'zini badiiy adabiyotda ayol kishi tasviriga nisbatan ishlatilishi amrimahol. Bu esa tarjimada o'z aksini topmagan.

Asardagi keyingi portret tasviri ikkinchi tolibi ilm bo'lmish Sultonmurod obraziga tegishli bo'lib, asarda u *"Ikkinchi mullabachcha Hiroflik o'rtahol oilaga mansub Zayniddin qaddi-qomati nozik, xushmuomala, xushsuhbat, havoyi tabiatli yigirma-yigirma bir yashar yigit edi"* [1, 5-b.] tarzda tasvirlangan. Ingliz tiliga parcha *"The second student is Zayniddin who comes from a middle class family in Herat. He is slim, talkative, and about twenty or twenty one years old"* deb tarjima qilingan. *"Qaddi-qomati nozik"* birlikmasi inglizcha *"slim", "xushmuomala, xushsuhbat"* sifatleri *"talkative"* deb tarjima qilingan. *"havoyi tabiatli"* birlikmasi esa tarjimada tushib qolgan. *"Talkative"* sergap, ko'p gapiradigan, so'zamon insonlarga nisbatan ishlatiladi. Qahramonimiz esa *"xushsuhbat"* ya'ni, kirishimli, suhbatlari yoqimli, ma'noli, har vaqt mazmunli, to'g'ri gapiradigan insonlarga xos sifatdir. Uni ingliz tiliga *"articulate"* deb tarjima qilinsa, *"xushsuhbat"* ya'ni, fikrlarini ravon yetkaza oladigan, ma'noli gapiradigan, suhbatlashish yoqimli bo'lgan insonni gavdalanitirish mumkin. *"Havoyi"* so'zi o'zbektilining izohli lug'atida *"asossiz, bo'sh, puch, haqiqiy emas"* kabi ma'nolarda izohlanadi. Arabcha havo so'ziga tojikcha *-yi* qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan sifat bo'lib, "havoyi tabiatli" inson deganda ko'chma ma'noda yengil tabiatli, beqaror inson tasvirlanadi. Uning ingliz tilida *"flighty"* yoki *"whimsical"* kabi muqobillari mavjud. *"Havoyi tabiatli"* birlikmasini matnimizga mos, badiiy bo'yoqdor qilib *"slightly whimsical in his nature"* deb tarjima qilishimiz ham mumkin. Muallif ushbu qahramonni tasvirlashda uning tashqi qiyofasidan ko'ra ko'proq tabiati va xulq-atvoriga e'tibor qaratgan. Natijada bilimli, qiziquvchan qahramonimizning shoirona tabiatida biroz yengillik borligini badiiy jihatdan mahorat bilan ochib bergan. Inglizcha tarjimasida esa badiiy jihatdan biroz quruqroq, tarjima qilinmay qolgan so'zlar hisobiga oxirgacha ochilmay qolgan. Zayniddinni inglizchada *"The second student is Zayniddin who comes from a middle class family in Herat. He is a slender, fragile built, polite and articulate student of twenty or perhaps twenty-one slightly whimsical in his nature"* tarzida badiyroq qilib tarjima qilish maqsadga muvofiqroq bo'lardi bizningcha.

Yuqoridagi misollardan ko'rishimiz mumkinki, tarjimada portret tasviri qisman saqlanib qolingani. Tarjima jarayonida tushirib qoldirilgan so'zlar va badiiy bo'yoqdorlik berilmagani hisobiga qahramonlar tasviri asliyatdagidek yorqin aks etmagan. Ingliz madaniyati, urf-odatlar, turmush tarzi sharq xalqlaridan batamom farq qiladi. Shu sababdan o'zbek adabiyoti durdonalarini ingliz va boshqa g'arb tillariga tarjima qilish tarjimonlardan ikki hissa ko'proq mas'uliyat, topqirlik va ustamonlikni talab etadi. Ayniqsa, Navoiy davridagi muhitni muallif kabi tasvirlash, tushuntirish ancha mushkul vazifadir. Biroq asardagi qahramonlarning portret xarakteristikalarini tasvirining hammasi ham tarjimada asliyatga monand qayta yaratilmagan deyish noto'g'ri. Bir qancha o'rinlarda tarjimon bu masalaga mas'uliyat bilan ijodiy yondashganligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oybek, "Navoiy". "Yoshlar matbuoti", 2023. [1]
2. Oybek, "Navoiy". "Yangi asr avlodi", 2016.
3. Ойбек. Танланган асарлар. III том. – Т.: "Ўздавнашр", 1957.
4. Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Т.: "Ўқитувчи", 1978.
5. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Т.: "ToshDSHI", 2016.